International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

YOZMA ISHLARNI TASHKIL ETISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI

Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
husnorabaxt4998@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma ishlarni tashkil etishga doir bosqichli topshiriqlardan namuna keltirilgan hamda topshiriqlarning o‘quvchining yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yozma nutq ko‘nikmasi, kommunikativ yondashuv, bosqichli topshiriq, tanqidiy fikrlash, tahlil, qiyoslash, analiz-sintez

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish yozma ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etish metodlarini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari mavjud. Xususan, O.Madayev va b.larning “Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant”[1], T.Ziyodovaning “Matn yaratish texnologiyasi”[2], M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshevlarning “Matn tilshunosligi”[3], S.Dolimovning “Ta’limiy bayon va insho”[4], K.Mavlonovaning “Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi”[5], Z.To‘yeva “O‘quvchilarni integrativ ta’lim asosida bayon yozishga o‘rgatish metodikasi” kabi tadqiqot ishlari, metodik qo‘llanmalarida hamda amaldagi “Ona tili” darsliklarida yozma ishlar mazmuni, metodikasi, o‘quvchilarning bog‘lanishli nutq tuzish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot ishlaridan olgan xulosalarimiz hamda tadqiqot davomidagi kuzatuvlarimiz asosida yozma ishlarni tashkil qilishga oid ba’zi mulohazalarimizni keltiramiz.

O‘quvchini real nutq vaziyatidan kelib chiqib, ma’lumotni tavsiflashi, yuzaga keladigan vaziyatning sababi va uning natijalarini aniqlay olishi, o‘rtaga tashlangan muammoga erkin va

[1] Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent, 2020. – 103 b.
[2] Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.
[3] Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 114 b.
[4] Dolimov S. Ta’limiy bayon va insho. – T: “O‘qituvchi”, 1968
[5] Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi. Monografiya . – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 264

asosli fikr, yechim topa olishi hamda real voqealarni kuzatish orqali fikrlash va o‘z fikrini dalillashga o‘rgatish maqsadida quyidagi tartibda topshiriqlar ketma ketligi bilan ishlash maqsadga muvofiq:

a) jadvalda berilgan muammo va ushbu muammoga oid keltirilgan fikrlar bilan tanishib chiqing.

Ba’zi insonlar kunduzgi ta’limda o‘qishni foydali deb hisoblashsa, ayrim kishilar kechki ta’limni afzal bilishadi	
Kunduzgi ta’lim afzalliklari: • *kunning birinchi qismi inson salomatligi uchun foydali;* • *vaqtdan unumli foydalanish;* • *samaraqli uyqu rejimi (peshin uyqusi, kechki uyqu);* • *vaqtida ovqatlanish;*	**Kechki ta’lim afzalliklari:** • *to‘liq ishlash imkoniyati;* • *tirbandsiz qatnov;* • *nazariy va amaliy tajriba;* • *vaqtida ovqatlanish imkoniyati*

Ushbu topshiriqda o‘quvchi berilgan muammo va unga oid fikrlar bilan tanishadi. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning mavzu mohiyatini tushunish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilingan. Keyingi topshiriq orqali mauammoga oid turli qarashlarni tahlil qilish, o‘z munosabatlarini bildira olish, har ikkala tomonni qiyoslash o‘gatiladi:

b) jadvalning birinchi va ikkinchi ustunida sanab o‘tilgan birliklar bosh sarlavhalariga(*kunduzgi ta’lim afzalliklari; kechki ta’lim afzalliklari)*ga va mosmi? Fikringizni izohlang. Ularni o‘zaro taqqoslab, munosabat bildiring.

d) o‘z qarashlaringiz asosida har ikkala ustundagi fikrlarni asoslab, qayta yozing.

Topshiriqning mazkur bosqichi orqali o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq tuza olish, fikrlarni dalillash, qo‘shiladigan fikrlariga nima uchun qo‘shilishi, qo‘shilmaydigan fikrlarini nima uchun inkor etishini asoslay olishi shakllantiriladi.

Keyingi bosqich orqali mavzuni qayta nomlash, tahlilga tortilgan qarashlar, asoslangan fikrlarni bog‘lash hamda muammo yuzasidan o‘z fikrini xulosalay olish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

e) mavzuni qayta nomlang, fikrlarni tartiblab quyidagi ketma-ketlikda bayon qiling:

- ✓ kirish(mavzuni qayta nomlash);
- ✓ asosiy qism(ikkala ustundagi fikrlarni o‘z qarashlari bilan qayta shakllantirish)
- ✓ xulosa(keltirilgan masala yuzasidan o‘z xulosasini berish).

f) yozgan fikrlaringizni qayta tahrir qiling. Xato va kamchiliklaringiz ustida ishlang.

Bu bosqichda esa o‘quvchining tahrir qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘zi yozgan matnni qayta o‘qiydi va o‘z-o‘zini baholaydi. Bu kabi bosqichli topshiriqlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan.

Turli til materiali va vositalarini nutqda qo‘llay olishi, muayyan bir xabarni vaziyatga moslab yetkazib bera bera olishi, badiiy, ilmiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon etishi til o‘rganishdagi to‘rt ko‘nikmadan biri bo‘lgan yozma nutqni rivojlantirish sohasida muhim ahamiyatga ega.

a) “Apple Inc” korporatsiyasi asoschisi Steven Paul Jobs haqidagi audiomatnni tinglang savollarga javob bering.

Havola: https://youtu.be/mdPAxFxiQGQ?si=7vqjwSzSQ5osLJfe

1. Steven Jobsni nima uchun ota-onasi o‘qitishga harakat qiladi?
2. O‘smirlik davrida Jobs hayotida qanday o‘zgarish bo‘ldi?

3. Steven Jobs nima uchun kollejdagi o‘qishidan voz kechgan?

4. Jobs qobiliyatlarini namoyon qilgan voqea qaysi?

5. Steven Jobs qaysi qarorni hayoti uchun to‘g‘ri deb qabul qilgan? Sizningcha, u to‘g‘ri qaror qabul qilganmi? Fikringizni izohlang.

Topshiriqning birinchi bosqichida o‘quvchilarga audiomatn eshittiriladi. Ushbu audiomatn o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ma’lumotlarni tushunish va bu orqali tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar audiomatnni eshitib bo‘lgach, u asosidagi savollar orqali audiomatn mazmuni ochiladi. E’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan o‘rinlardan biri savollar mazmuni bo‘lib, ular ma’lum fakt va dalilni so‘rashga emas, balki matn mazmunini tushunish, tahlil qilish va uni har bir o‘quvchi o‘zining hayoti bilan bog‘lab fikr bildirishiga qaratilgan.

Topshiriqning keyingi bosqichi esa o‘quvchiga audiomatndagi fikr egalarini aniqlash, ularning nutqini saralash, unga xos til birliklari hamda matn asosidagi o‘z munosabatlarini tahlilga tortishga qaratilgani bilan ahamiyatli:

b) audiomatnda nechta nutq egasi ishtirok etgan? Ularni aniqlashingizda qaysi til birliklari yordam berdi?

d) audiomatnni qayta tinglang. Steven Jobs nutqiga oid ma’lumotlarni aniqlab, namuna asosida yozing.

- *Steven Jobs otasining ko‘plab qobiliyatga ega ekanligini va bunga havas qilishini aytadi.*
- *Steven Jobs: “Otam juda qobiliyatli inson, men unga juda havas qilaman”, – deydi.*

asrab olingani	otasining mehribonligi	kollejni tark etishi
shisha sotgani	muvaffaqiyatga erishgani	yaqin do‘sti
birinchi yutug‘i	“Apple Inc” kompaniyasiga asos solishi	

Bu bosqichning muhim jihati shundan iboratki, o‘quvchilarda audiomatndagi fikrlarni tartiblash, fikrga asos keltirishni o‘rganish va unga oid nazariy bilim: ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar imlosi bilan ishlash, fikr va faktni aniqlash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

e) keltirilgan fikrni o‘qing. Siz ushbu fikrga qanday qaraysiz? Fikringizni matn ko‘rinishida yozing. Quyidagilarga e’tibor bering:

Ba’zi yoshlar kelajakda kasb tanlashda ota-ona bilan maslahatlashishni muhim deb bilsalar, ba’zi yoshlar o‘zlari qaror qabul qilishga intiladilar		
Kirish	Asosiy qism	Xulosa
• sarlavhani o‘z fikrlaringiz bilan qayta nomlang; • 25–35 so‘z.	• yoqlaydigan va yoqlamaydigan tomonni yoriting; • sabab, misol, tushuntirishlaringizni keltiring; 80 – 100 so‘z.	• munosabat bildiring; • fikringizni xulosalang; • 15–30 so‘z.

Foydalanish uchun til birliklar		
Hozirgi menimcha, talabiga aytishlaricha, bilamizki… *kunda, zamon ko‘ra, biz*	*Chunki, negaki, sabibi, bois, …qaraganda, unga ko‘ra…*	*Xulosam shuki, xulosa qiladigan bo‘lsam, shunday qilib, umuman olganda..*

Topshiriqning ushbu bosqichida o‘quvchilardan tinglagan auidomatn asosida olgan xulosalariga tayangan holda berilgan mavzu va strukturaga mos bayon yozishlari talab etiladi. Bu orqali o‘quvchilarning berilgan til birliklaridan o‘rinli foydalana olish, fikrlarini izchil bayon eta olish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilingan.

Kommunikativ yondashuv asosida bu kabi bosqichli topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchiga nisbatan qiziqish va rag‘batni kuchaytiradi. U real nutq vaziyatida o‘quvchiga o‘zi ko‘rgan, bilgan va hayoti davomida duch keladigan nutqiy vaziyatlarni qanday ifodalash, qay o‘rinda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi: – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.
2. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 264 b.
3. Ona tili. Ijod maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. / K. Mavlonova, Sh. Toshmirzayeva, N. Ergasheva, Z. Rashidova – Toshkent: “Yosh avlod manbaa”, 2023. – 160 b.
4. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent, 2020. – 103 b.